Talaba-yoshlarni ta’lim sifatiga tizimning asosiy strategiyasini belgilovchi asosiy omil, raqobat ustunligining zarur tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimi – ta’lim sifatini doimiy boshqarish, rejalashtirish, ta’minlash orqali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy tuzilma, metodologiyalar, jarayonlar va manbalar majmuidir. Sifat tizimning asosiy hujjati hisoblanadi.

Sifat menejmenti tizimi o‘quvchi-yoshlarni ta’lim muassasalari faoliyatining pedagogik, ilmiy, ma’muriy va iqtisodiy sohalarini qamrab oladi. Ushbu sohalar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p holatlarda o‘zaro kesishadi Ta’lim sifatini tushunishda mahsulot sifatining belgilangan konsepsiyasiga asoslanish kerak: “sifat – bu ma’lum yoki qabul qilingan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradigan mahsulot yoki xizmatlarning xossalari va xususiyatlarining yig‘indisidir” (ISO 8402 xalqaro standarti). Ta’limning o‘ziga xos xususiyati mahsulotlarga qaraganda iste’molning murakkab tuzilmasidir.

Ta’lim sifatini boshqarishning barcha jihatlarining ahamiyati va o‘quvchi-yoshlarni ta’lim muassasalari sifat menejmenti tizimi qanday modelga muvofiq bo‘lishidan qat’iy nazar, har qanday umumta’lim maktab va oliy ta’lim butun ta’lim sifatini va sifat sohasidagi asosiy vazifalarni belgilovchi bir necha asosiy omillar aniqlanishi mumkin.

Ta’lim sohasidagi dunyo yetakchilarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqobatbardosh strategiyaning asosi ISO 9001 seriyasining xalqaro standartlari talablariga javob beradigan sifat menejmenti tizimi orqali sifatga yo‘naltirilgan. Shu munosabat bilan o‘quvchi-yoshlarni ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari sifatini oshirish davlat vazifalari doirasida strategik maqsad sifatida hamda o‘quvchi-yoshlarni ta’lim muassasalarining vazifalari doirasida hayotiy faoliyati, rivojlanishi va farovonligini ta’minlash vositasi sifatida qaraladi. Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlarni ta’lim muassasalari o‘z mavqeyini “bozor subyekti” sifatida tan olishi kerak va shu sababli bozor iqtisodiyotining barcha qonunlari, yashash uchun kurash qonunlari va “tabiiy tanlov” ta’lim xizmatlari bozorida ham amal amal qilishini e’tirof etishi kerak [1].

Bugungi ta’lim tizimini isloh qilish borasidagi amaliy harakatlar davrida «sifat» talaba-yoshlarni ta’limning mamlakatlar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog‘liqligi hamda ahamiyati fonida yanada muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalariga

asoslangan zamonaviy innovatsion ishlab chiqarish yuqori intellektual salohiyat va kasbiy malakaga ega boʻlgan tegishli ishchi kuchini talab qiladi. Bugungi kunda taʼlim tizimini takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mustaqil Oʻzbekistonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu maqsad yoʻlida katta ishlar olib borilayotgani ham sir emas. Yoshlar bilim olishga undalmoqda va ularga zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Talaba-yoshlarni taʼlimning sifati va raqobatbardoshligi bugungi kunda respublikaning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun talaba-yoshlarni taʼlim sifatini oshirishda ijtimoiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va hayotga joriy etishning ilmiy asoslarini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq qilish tavsiya etiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi farmonni imzoladi [2].

Konsepsiya doirasida 2030-yilgacha erishilishi rejalashtirilayotgan 70 dan ziyod maqsadli koʻrsatkichlar tasdiqlandi. Xususan bitiruvchilarni oliy taʼlimga qamrab olishni hozirgi 20 foizdan 50 foizga oshirish, nodavlat OTMlar sonini, jumladan davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) hisobiga 5 tadan 35 taga etkazish, kredit-modul tizimi qamrovini 2 foizdan 85 foizga chiqarish rejalashtirilgan. Oliy taʼlim sohasida DXSh ni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy taʼlim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy taʼlim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sogʻlom raqobat muhitini yaratish konsepsiyaning asosiy maqsadlaridandir. Oʻzbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakat OTMlar flagmaniga aylantirish moʻljallangan. Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bogʻliqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasi bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Taʼlim tizimining ajralmas xarakteristikasi, haqiqiy erishilgan taʼlim natijalarining meʼyoriy talablarga, ijtimoiy va shaxsiy kutilgan natijalarga va umuman jamiyatning kutilgan natijalariga muvofiqligi darajasini aks ettiradi

“Taʼlimning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi, oʻzining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega boʻlgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega boʻlamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi.” [3]

Taraqqiyotning yangi davriga qadam qoʻygan Oʻzbekistonda bugungi kunda Uchinchi Renessans davri poydevori qad roslamoqda. Poydevorning mustahkam boʻlishi, hech shubhasiz, oliy taʼlimga, uning sifati va natijadorligiga bogʻliq.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-maʼnaviy hayot darajasining yuksalishi taʼlim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida taʼlim sohasini tubdan takomillashtirish, taʼlim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan boʻlib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan taʼlim tizimini yaratish koʻzda tutildi

Taʼlim sifati oʻlchanuvchanligi muammolari bilan bir qatorda ekvivalentlik muammosi (yaʼni qiyosiylik,jamiyat talablariga moslik va shu bilan bogʻliq boʻlgan pedagogik kadrlar kasbiy bilimdonligi ) oliy taʼlim sifatini oshirish yoʻlini qidirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda

**Adabiyotlar tahlili.** Jamiyatning bir butunligini ta'minlovchi ijtimoiy mexanizmlarni ilmiy oʻrganishga, ijtimoiy boshqaruv va ta'lim sifatini takomillashtirish masalalariga gʻarb pedagog olimlaridan Kachalov, B.D.Shadrikovlar fikriga koʻra ta'lim sifati iste'molchilar ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini, M.B.Rejakov ta'lim xizmatlarini jamiyat ehtiyojlari va talablariga mosligi darajasi sifatida izohlaydilar. Pedagog olim N.F.Efremovaning tadqiqotida ta'lim sifati nafaqat natija tariqasida, balki ta'lim muassasalari faoliyatida ham, shaxsning oʻzida ham, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitda ham oʻzgarishlar tufayli murakkab rivojlanish dinamikasiga ega boʻlgan jarayon sifatida qaralgan [4]. Demak, ta'lim sifati nafaqat ta'lim muassasalarining maqsadlari va qadriyatlari bilan cheklanib qolmaydi, balki jamiyat ehtiyojlariga:ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ehtiyojlariga toʻliq javob berishi, jamiyat rivojiga, uning insoniy salohiyatiga hissa qoʻshishi kerak.

Rossiyada oliy ta'lim sifati 90-yillar oxiridan boshlab oʻrganilgan. Rossiya oliy ta'limi muammolari S.Abramova, N.V.Bordovskiy [5], V.A. Bolotov [6], L.I.Varenova, A.A.Vetrova, V.I.Vovna, O.A. Granichina [7], L.A.Golub, G. L. Gromiko, S.P.Dokina, S.S.Doneskaya, S.P. Erkovich, N.F.Efremova, D.F.Zakirova, Yu.A.Zaxarov, I.A.Zimnaya, B.I.Iskakov, V.G.Kazanovich, S.M.Kalabin, N.P.Kalashnikov, Z.I.Kapelyuk, O.M.Karpenko, V.G.Kinelev, A.A.Kirinyuk, N.V.Kovaleva, B.K.Kolomies, S.V.Korshunov, V.J.Kuklin [8], A.A.Kushel, B.X.Land, A.G.Levinson, B.G.Litvak, A.N.Mayorov, T.V.Makarova, V.V.Melnik, V.I.Meshalkin[9], ,V.A.Moskinov, R.V.Muzichenko, O.G.Nefedova, O.N.Onishenko, B.P.Plishevskiy, N.I.Popov, A.Prokofev [10], B.A.Savelev, N.A.Selezneva [11], O.A.Silaev, L.M.Struminskaya, A.I.Subetto [12], E.V.Sumarokova, Yu.G.Tatur, D.A.Tatyanchenko, I.I.Trubina, K.S.Farino, I.B.Fedorov, E.V.Filyuk, A.A.Frenkel, E.Xrikov, M.B. Chelishkova, A.I.Chuchalin, V.D.Shadrikov, E.N.Shuvalov, E.M.Yurtanova va boshqalar asarlarida oʻz aksini topgan.

Ushbu tadqiqotchilar oliy ta'lim sifatini aniqlashda turli yondashuvlarni aniqlaganlar va uni baholashning turli mezonlarini taklif qilganlar. Oliy ta'lim sifatini baholashning milliy modelini yaratishda Milliy Akkreditatsiya Agentligining mutaxassis olimlari E.N.Gevorkyan, G.N.Motova, V.G.Navodnov, M.V.Petropavlovskiy, V.J.Kuklin, A.S.Maslennikov, B.A.Savelev, D.I.Petrov va boshqa olimlar nafaqat ta'lim sifati koʻrsatkichlari tizimi va universitetlar uchun har tomonlama baholash mexanizmini ishlab chiqqanlar, balki ushbu protsedurada statistik va matematik modellar, usul va metodologiyalarni qoʻllaganlar. Ta'lim sifati oʻlchanuvchanligi muammolari bilan bir qatorda ekvivalentlik muammosi (ya'ni qiyosiylik,jamiyat talablariga moslik va shu bilan bogʻliq boʻlgan pedagogik kadrlar kasbiy bilimdonligi ) oliy ta'lim sifatini oshirish yoʻlini qidirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Oliy ta'limni barqaror rivojlantirish mexanizmlarini hamda ta'lim boshqaruv tizimlari monitoringini yaratish, ijtimoiy prognozlash hamda ta'lim jarayonlarini matematik modellashtirish masalalari Rossiyalik olimlardan I.V.Bestujev-Lada, A.E.Karpuxin, G.F.Romashkina, M.V.Sigotina, F.E.Sheregi sotsial boshqaruv mexanizmlari, innovatsion universitetlarni sotsial boshqarish mexanizmlarini yaratish masalalari, oliy oʻquv yurtlari talabalarining ma'naviy qiyofasi, hayot tarzlarini ilmiy oʻrganish, talabalarning oʻzini oʻzi boshqarishi masalalari esa T.Yu.Balandina, A.O.Grudzinskiy , T.I.Zaslavskaya, V.I.Franchuk va boshqa pedagog-olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida namoyon boʻlganligini koʻrish mumkin**.**

**Tahlil va natijalar.** Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmentini takomillashtirishga bagʻishlangan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Instituti for Management Research (Niderlandiya), Erasmus Research Instituti of

Management (Niderlandiya), University of Coimbra (Portugaliya), Qozon Federal universiteti (Rossiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), University of Primorska (Sloveniya), International Instituti for Educational Planning (UNESCO) olib borilmoqda. Talab etilgan darajadagi ta’lim sifati natijalariga ma’lum ijtimoiy pedagogik tizim orqali erishish mumkin. Sifat maqsadlarga mos kelish darajasi sifatida hozirgi kunda eng koʻp ishlatiladigan kategoriyalardan biri hisoblanadi.

Talaba-yoshlarga ta’lim muassasasining sifatli mahsulotlari ta’lim xizmatlari emas balki bitiruvchidir. Har bir sohaning rivoji bu birinchidan, oʻsha sohada faoliyat olib borayotgan kadrlar tayyorlanish sifati va ikkinchidan tayyorlangan kadrlarning kasbiy fidoyiliklariga bogʻliqdir. Bu esa kadrlar masalasiga, ya’ni ularni tanlash va tarbiyalashga e’tiborni kuchaytirish, ularning rahbarlikka doir layoqatini oʻrganish, ularni maqsadli tarbiyalash va bu maqsadga etish uchun bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad esa ta’lim sifatini oshirish va uni takomillashtirishdir. Chunki, ta’lim sifati va uni takomillashtirish orqali soha boʻyicha tayyorlanayotgan kadrlarni mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga erishish mumkin.

Amaliyotga murojaat qilinsa, sifat muammosini hal qilishga, ta’lim sifatini baholashga asosiy yondashuvlar quyidagicha belgilanadi:

- ta’lim sifatini aniqlashda tizimli yondashuv zarur;

– ta’lim sifatini baholash «sifatni aniqlashning «ichki» va «tashqi» deb nomlangan jihatlari bilan bogʻliq, ya’ni ham utilitar oʻlchashni, ham intellekt, bilimga egalik va ijodiy salohiyat bilan bogʻliq boʻlgan oʻzgarishlarni oʻz ichiga oladi;

– ta’lim sifatini baholash ijtimoiy buyurtmaga moʻljallangan ekspert,natijali va umumiy yondashuvlarni oʻz ichiga olishi kerak;

– professionallarni ekspert baholashsiz sifatni baholashning iloji yoʻq;

– ta’lim sifatini baholash uchun ta’lim sifatining ma’lum koʻrsatkichlarini kiritish zarur.

Olib borilgan sotsiologik tahlil shuni koʻrsatdiki, oliy ta’lim muassasalarida professor-oʻqituvchilarning salohiyati va kafedralarning ular bilan ta’minlanganligi unchalik talab darajasida emas. Oliy ta’lim muassasalaridagi ba’zi kafedralarning deyarli 40% dan koʻprogʻida fan doktorlari, professorlar yetishmaydi, va eng asosiysi, hozirda faoliyat koʻrsatayotgan professor-oʻqituvchilarning mehnat unumdorligi darajasi, oʻz mehnatidan qoniqish darajasi va ayniqsa, ularning olayotgan ish haqlaridan qoniqish darajasi unchalik yuqori emasligi hamda professor-oʻqituvchilarning malakasini oshirish a’lo darajada emasligi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy talablarining yetarli holatda bajarilmayotganligi talabalarning ta’lim olish sifatiga katta ta’sir koʻrsatmoqda. Professor-oʻqituvchilardan «Hozirgi ta’lim sifatiga sizning munosabatlaringiz», — deb soʻralganda, «A’lo» deb javob berganlar – 19,5%, «Yaxshi»,-deganlar 29,8%, 45,0% – «Qoniqarli», 9,9% respondent esa javob berishga qiynalishdi . Bundan xulosa shuki, ta’lim tizimini zamon talablari darajasiga koʻtarish, ta’lim sifatini yanada oshirib borish dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda. Ma’lumki, har qanday insonga, jumladan, professor-oʻqituvchiga ham uning tanlagan sohasi, kasb-kori uning tabiatiga, jismoniy va ijodiy quvvatiga hamda uning ruhiyatiga mos kelishi kerak. Agar mos kelmasa, undagi salohiyat darajasi ham past boʻladi va oʻqituvchining jamiyatimizga beradigan foydasi ham kam boʻladi. Shu maqsadni aniqlash uchun «Siz tanlagan soha oʻzingizga yoqadimi?» degan savol professor-oʻqituvchilarga berildi. Ularning 67 foizi tanlagan kasbi juda yoqishini va kasbidan faxrlanishini javobini bergan.

Har bir kasb egasi u qaysi soha boʻlishidan qatʼiy nazar, oʻz kasbiga mehr qoʻyishi, uni eʼzozlashi va kasbi boʻyicha muntazam ravishda malakasini oshirib borishi shartdir. Toʻgʻri, oʻz navbatida oʻz kasbining yoqmasligiga ijobiy va salbiy omillar ham taʼsir etishi mumkin. Ana shunday omillar taʼsiri natijasida oʻz kasbini sevadigan oʻqituvchilarning bir qismida ham oʻz kasbidan zerikish, undan voz kechish hollari yuz beradigan boʻlsa, bu jamiyat taraqqiyoti uchun salbiy holdir. Bunday salbiy holni oʻrganish uchun respondentlardan «Agar kasbingiz yoqmasa, uning sabablari nimada?»,-deb soʻralganda, 22,0% respondentlar «Oʻqituvchilik kasbining masʼuliyati juda baland» desa, ularning 52,0% «Oʻqituvchilik kasbining obroʻsi yuqori emas»,-degan fikrni bildirib, «Kasb insondan tinimsiz mehnat talab qiladi»,-degan javobni esa 18,0% respondentlar qayd etdi. . Bu kasbning moddiy tomonlari, «Toʻlanadigan ish haqi mehnatga yarasha emas»,- deganlar 8,0% ni tashkil qiladi. Bundan koʻrinib turibdiki, professor-oʻqituvchilar oʻz ustlarida tinimsiz mehnat qilishdan charchashmaydi. Professor-oʻqituvchilar «Oylik maoshingiz qilayotgan mehnatingizga (maʼruzalar, seminarlarga tayyorgarlik, darslarni sifatli oʻtkazish va boshqalar) mos keladimi?»,-degan savolga birmuncha boshqacharoq javob berishdi. Respondentlardan 47,4% «Ha, mos keladi»,-deb belgilaganlari holda, ularning koʻpchiligi, yaʼni 53,2% respondentlar «Unchalik mos kelmaydi»,-deb javob berganlar. Demak, oʻqituvchilar ish haqining yetarli boʻlmasligi ularning oʻz mehnat faoliyatlariga befarqlik holatini keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas. Professor-oʻqituvchilarning mehnat faoliyatida asosiy mezonlardan boʻlgan oylik maoshini belgilashda ilmiy darajalari oʻrtasidagi differensiatsiya koʻproq boʻlsa, yaxshi natija berar edi. Binobarin, respondentlarning katta qismi oʻzining olayotgan maoshidan qoniqmaydi. Bu yerda qoʻshimcha xoʻjalik shartnomalari va grantlar bilan ishlashga yanada eʼtibor berilishi lozim.Grandlar olish shartlari va talablari juda murakkab. Shu bilan birga professor-oʻqituvchilar uchun qoʻshimcha daromad qilish manbalarini izlab topish va unga zarur shart-sharoitlar yaratib berish ularning moddiy manfaatlarini yanada oshiradi, deb oʻylaymiz.

Professor-oʻqituvchi kasbining nufuzi masalasida ham 65,1% respondentlar professor-oʻqituvchining obroʻsi juda ham baland boʻlishini taʼkidlashgan. Jamoa orasida obroʻsi yuqori boʻlishi kerakligini – 24,2%, talabalar orasidagi obroʻ bilan oʻlchanishini – 14,6% respondentlar taʼkidlashgan. Bundan koʻrinib turibdiki, respondentlarning yarmidan koʻpi professor-oʻqituvchilar obroʻsi juda ham baland boʻlishi kerakligini qayd qilishgan. Binobarin, oliy taʼlim muassasalarining aksariyat professor-oʻqituvchilari oʻzlari ustida tinmay ishlab, ushbu nomga loyiq boʻlish harakatidalar. Respondentlarga, «Oʻz obroʻyingizni nima bilan oʻlchaysiz?»,-degan savolga: «Kasbdoshlarning munosabatiga qarab»– 4,2%, «Talabalarning munosabatiga qarab oʻlchayman» –19,8%, «Yuqoridagilarning barchasiga qarab» – 69,3%,-degan javobni maʼqul koʻrishgan. Ushbu savoldagi «Boshliqlarning muomalasiga qarab oʻlchayman»,-degan javobni hech qaysi respondentimiz belgilamadi . Demak, natijalar respondentlarning bu sohada bir necha yillardan buyon ishlab kelayotgani, oʻz kasbi va hurmatini biladigan oʻqituvchilar ekanligini koʻrsatmoqda. Professor-oʻqituvchilarning oʻz kasblariga boʻlgan munosabatlarini oʻrganish yuzasidan savollar asosida olingan natijalarga koʻra 11,6% respondent oʻqituvchi kasbining obroʻsi tushganligini koʻrsatgan. Buning sabablarini izohlashga kelganda respondentlar «Oʻqituvchilar moddiy ahvolini» – 13,0%, «Oʻqishga boʻlgan qiziqishning kamayganligini» – 39,3%, «Oʻqituvchilikka boʻlgan qiziqishning kamayganligini» – 41,7% bildirgan. Shu bilan birga, respondentlarning hozirgi vaqtda oʻqituvchilik kasbining obroʻsini koʻtarish chorasi sifatida «Jamiyatda fan va oliy taʼlim obroʻsini koʻtarish»,- deb bilishini

koʻrsatib oʻtdilar. Yana bir savollar turkumi oʻquv-tarbiya jarayoniga munosabatlarini oʻrganishga moʻljallangan. Jumladan, respondentlarning «Talabalar zamon talabi darajasida bilim olmoqdami?»,-degan savolga bildirilgan fikrlarini ilovadan koʻrishimiz mumkin . Talabalar asosiy qismining bilim olish darajasi yaxshi. Ammo past darajada ta’lim olayotgan 7,0% talabalarning jamiyatimiz uchun keyinchalik foydasi kam boʻlishi mumkin. Talabalar bilim darajasi pastligining sabablarini aniqlash uchun qoʻyilgan indikator savolga professor-oʻqituvchilarning turgan 45,0% «Talabalarda oʻqishga qiziqish ancha past»,-deyishsa, 13,0% «Talabalarda istiqbolga ishonch yetarli emas»,-deb koʻrsatishgan. Bu holatning boʻlishi fikrimizcha, jamiyatda uchrab salbiy, koʻngilni ogʻritadigan voqea va jarayonlarning ba’zida uchrab turishidir. Respondentlarning yarmiga yaqini – 44,2% «Talabalarning koʻpi ishlaydi va shu sababli bilimi past»,-degan javobni berishgan. Davlat tomonidan stipendiya miqdorlari bir necha bor oshirilgan boʻlsa ham, respondent fikricha, talabaning ehtiyojlarini uning stipendiyasi miqdori qondira olmaydi. Ba’zi talabalar oʻzlarining sotsial va moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ham ishlashga majburdirlar. Bu oʻrinda shuni koʻrsatish mumkinki, bilim berish darajasi pasayishi kuzatilmoqda va shu asosda talablarda bilimga intilish kuchli emas, ikkinchidan moddiy omil ham katta ta’sirga ega.

**Xulosa.** Oliy ta’lim sifatini oshirish davlatimizning strategik maqsadiga aylangan va mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalari faoliyatining asosiy shartiga turningan. Ta’lim, doimiy oʻzgaruvchan dinamik ijtimoiy tizim sifatida, boshqaruv obyekti hisoblanadi va u ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy oʻzgarishlarga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga, shuningdek, jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonlariga mos ravishda sifatli mutaxassislarni tayyorlashni oʻz oldiga dolzarb vazifa qilib qoʻyadi, shu bilan birga tizimga xos barcha xususiyatlarni oʻzida aks ettiradi. Tizim sifatida ta’lim ham faoliyat koʻrsatish, rivojlanish, inqiroz va taraqqiyot bosqichlarida boʻladi. Ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim davlatning obroʻ-e’tiborini, kelajagini va hatto milliy xavfsizligini belgilaydigan eng muhim omil sifatida e’lon qilingan. Jamiyatda kechayotgan har qanday global jarayonlar, ta’lim holatida oʻz aksini topadi. Hozirgi kunda oliy ta’limning sifatini baholash qoʻshimcha statistik koʻrsatkichlar va indikatorlarni aniqlash usullariga muhtoj: mehnat bozori ehtiyojlari va ish beruvchilari talablari nuqtai nazaridan baholanishi kerak. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari doirasida ta’lim sifatini nazorat qilishni tashkil etish va ta’lim sifatini baholashning umumiy tizimi uchun normativ bazani shakllantirish uchun modellarni yaratish rejalashtirilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishning dolzarbligi hozirgi davrda oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi sifatida ta’lim dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash uchun taqdim etiladigan ta’lim xizmatlarini yaxshilab, jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliqdir. Oliy ta’lim muassasalari chuqur nazariy bilimlarga, mustahkam amaliy koʻnikmalarga ega, murakkab ilmiy-texnik masalalarni hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashi lozim. Bu esa oʻqitish sifatini oshiruvchi usullarni ishlab chiqish zarurligini belgilaydi

Umumta’lim va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatining zamonaviy tendensiyalari va modellarini oʻrganish, mavjud tashkiliy-pedagogik muammolarni boshqaruv faoliyati va ta’lim sifatini ta’minlashga boʻlgan ta’sirini tahlil qilish, shuningdek, ta’lim sifatini yaxshilash uchun tuzilmaviy va funksional mexanizmlarning yoʻnalishlarini aniqlash va ilmiy asoslash muhimdir.

Inson kapitali sifatini oshirmasdan turib, keyingi iqtisodiy oʻsishni taʼminlash qiyin kechadi. Shu bois, zarur kuch va resurslarni taʼlim sifatini oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yoʻnaltirish nafaqat bugun, balki ertangi kunning ham ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Mamlakat taʼlim tizimida sifatni doimiy koʻtarib borish barcha rivojlangan mamlakatlarning taʼlim jarayonini yaxshilash sohasida olib borilayotgan tajribalarini chuqur tahlil qilgan holda, oʻzimizga xos va mos boʻlgan yoʻnalishlarni takomillashtirib borishimiz kerak.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Азарьева, В.В. Самооценка научно-исследовательской деятельности в вузе на базе принципов менеджмента качества/ В.В. Азарьева // Экономика и менеджмент организации. – 2015. – Вып. 2. – С. 62 – 67.
2. Мирзиёев, Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент, 2019.
3. Каримов И.А. Адолатли жамият сари./ И.А. Каримов – Т., 1998. – Б.21-23.
4. Нейман, Ю.М. Педагогическое тестирование как измерение : учеб. пособие /Ю.М. Нейман, В.А. Хлебников//.- Центр тестирования М-ва образования Рос. Федерации. - 1997.
5. Бордовская, Н. В. Системная методология современных педагогических исследований /.В. Бордовская // Педагогика. - 2005. - С. 21-29.
6. Болотов, В.А. Основные подходы к построению общероссийской системы оценки качества образования // Наука, высшее образование и развитие современного мира: сб. науч. ст. Архангельск. 2007. – С. 6-11
7. Граничина О. А. Контроль качества образовательного процесса в вузах России и зарубежом.- СПБ.: - Изд-во 2006 – С.115
8. Куклин В.Ж., Беляков С.А. Системные аспекты образовательной политики и управления образованием // Университетское управление. – М., 2003. – №3(26). – С.10-23
9. Мешалкин В. И. Учреждения высшего и среднего профессионального образования в Российской Федерации. Аккредитация - самообследование – рейтинг// М.: изд-во РУДН. 1995. 136 с.
10. Прокофьев, А. А. дис.... д-ра пед. наук /А. А. Прокофьев//: 13. 00. 08. / А. А, Прокофьев. /- Москва, 2005. - 375 с.
11. Селезнева Н. А. Качество высшего образования как объект системного исследования. Лекция-доклад./ -. Изд – во М., 2002. - 95 с.
12. Субетто А. И. Качество непрерывного образования в Российской Федерации./ - СПб. - М.: Исследовательский центр. 2000.- 448 с.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefonlar:**

(99) 602-09-84 (telegram).